

**PSIXOLOG FAOLIYATIDA O'QUVCHILARNI TURLI AXBOROT  
HURUJLARIDAN SAQLASHDA PSIXOLOGIK HIZMATNI TO'G'RI  
TASHKIL ETISH**

**Ataboyev Navruzbek Ilhombek o'g'li**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

[navruz9610@gmail.com](mailto:navruz9610@gmail.com) (99899 106 20 60)

**Annotatsiya.** Axborat asri bo'l mish yigirma birinchi asrda ma'lumotlarning ko'pligi, ularni to'g'ri noto'g'rige ajratish va inson o'ziga kerak bo'lgan informatsiyani olishi ham oson ham murakkab jarayonga aylandi desak adashmagan bo'lamiz. Murakkablik tomoni shundaki axborat olamidagi hamma ma'lumotlarni ham biz to'g'ridan to'g'ri o'zlashtira olmaymiz chunki ularning hammasi ham xolislik va yaxshi niyatlrga yo'naltirilmaganligi hammamizga ham sir emas. Bu esa insonning ruhiy holatija o'zining salbiy ta'sirini o'tqizmasdan qolmaydi. Xo'sh yoshl avlodni bu kabi axborat oqimi ta'siridan qanday saqlashimiz va psixologik hizmat mobaynida nimalarga e'tibor berishimiz lozim bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Shaxs, individuallik, jamiyat,

**Kirish:** inson qaysi biy jamiyatda qaysi bir muhitda bo'lishidan qat'iy nazar o'zi tomonidan qabul qilinayotgan ma'lumotlarga ko'r ko'rona ishonib ketmasligi va uni ishonchlilagini tekshirib ko'rishi maqsadga muofiqdir. Bu borada dinimizda ham bir qator ko'rsatmalar berilgan bo'lib bu narsa axamiyatlichkeit jihatdan hamma davr uchun ham birdek muhim ekanligi haqida xulosa chiqarishimiz mumkin. Qur'oniy Karimning Isro surasida shunday marxamat qilinadi: "(Ey inson!) **O'zing (aniq) bilmagan narsaga ergashma!** Chunki **quloq, ko'z, dilning har biri to'g'risida** (har bir inson) **mas'ul bo'lur** (javob berur)" (36 oyat)

**Asosiy qism.** Ta'lim tizimida psixolog ish faoliyati tartibi bir muncha murakkab tuzilganki bunda har bitta psixolog qaysidir ma'noda o'zi ishlayotgan muhitda o'zi uchun qisman bo'lsada yangilik yaratish, o'z ish faoliyatini samarali tashkil etishi uchun ish tartibini belgilab olgani maqsadga muofiqdir. Xo'sh umuman hozirgi kunda maktab ta'lim tizimidagi psixolog faoliyati o'zi ichiga qanday vazifalarni yuklab olganligi bilan tanishib chiqsak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida:

**Quyidagilar psixologik xizmatning asosiy vazifalari etib belgilansin:**

Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini samarali va sifatli tashkil etish, shu jumladan, ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari samaradorligini oshirish;

O'quvchilarning qobiliyati, layoqati, qiziqishlari hamda kasb-hunarga moyilliklari asosida to'g'ri kasb-hunar tanlashlariga ko'maklashish;

Turli yosh davrlarida o'quvchilarning shaxsiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jihatdan kuzatib borish, ta'lim-tarbiyatagi psixologik nuqsonlarni aniqlash, ularning aqliy taraqqiyotida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy og'ishlarning oldini olish;

O'quvchilar ta'lim muassasasining ijtimoiy muhitiga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash, ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish;

Pedagogik jamoalarda sog'lom psixologik muhitni yaratish va qo'llab-quvvatlash, jamoa a'zolarining hissiy-emotsional holatlari, shaxslararo munosabatlar va ziddiyatli xatti-harakatlarni korreksiyalash, ularning psixologik madaniyatini yuksaltirish;

Iste'dodli va iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, ularning individual-psixologik, fiziologik xususiyatlari va qiziqishlarini o'rghanish, qobiliyatlarini namoyon etishlari va rivojlantirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;

Axborot-psixologik xurujlarning xavfi, internet jahon axborot tarmog'inining salbiy ta'siri, yoshlar tarbiyasiga xavf solayotgan "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi holatlarining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazish;

Pedagog xodimlar, o'quvchilar hamda ota-onalarning psixologik-pedagogik bilimlarini oshirishga ko'maklashish, pedagog xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining samarali hamkorligini ta'minlash.<sup>1</sup>

Yuqoridagilardan shu narsa anglashiladiki psixolog faoliyati faqatgina ma'lumum bir tor doiradagi ishlar bilangina cheklanib qolmagan.

Xo'sh nima uchun biz axborat oqimidan yosh avlodni himoya qilish bugun boshqa davrlarga qaraganda dolzarb va muhim deb aytamiz. Chunki yaqin o'n yillikda axborat oqimining keskin oshishi yangi imkoniyatlar bilan birga yangi muammolarni ham yuzaga keltirdi. Jamiyatda mavjud qadriyatlarning yemirilishi, bu tushuncha va fikrlarning hilma hilligi insonlar o'rtasidagi nizoli vaziyatlarning ham ortishiga sabab bo'lishi, turli hil diniy siyosiy oqimlarga qo'shilish va buning orqasidan yuzaga keluvchi va yuzaga kelayotgan muammolar talayginadir. Bu esa axborat hurujlariga bizda ham imunitet bo'lishiga va unga sog'lom ruhiyat, teran aql bilan qarshi turishimiz kerakligini bildiradi. Yosh davrlari psixologiyasidan ma'lumki har bitta yosh davrining oz yetakchi faoliyati mavjud bo'lib bu yetakchi faoliyatlardan birini har doim boshqa insonlar bilan bo'ldigan munosabatlar ham mavjud bo'lgan va biz bugun bemalol bu yetakchi faoliyat turlari sirasiga boshqa

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/-4417140>

yetakchi omillarning susayishi hisobiga internetga qaramlikning yuqori darajaga chiqqanligini kuzatishimiz mumkin.

Albatta o'quvchi ko'p vaqtini o'tkazadigan muhit bu uning oilasi va maktabi bo'lib psixolog bunda ota ona va o'qituvchilar uchun axborat xavfsizligi borasdia yo'riqnomasi va tushuntirish ishlarini olib borishi bu boradagi vazifalarning samarasini oshirishi va ko'proq insonlarning ham bu mavzular yuzasidan boxabar qilishi mumkin.

Xususan ota ona, pedagog va psixologlar bu boradagi tavsiya o'laroq vaziyatlarga quyidagicha yondashishlari mumkin:

Maktabdan oldin ham bolada o'quvchi obrazini shakillantirish. Ya'ni ta'limgarayoni o'zaro hamkorlik jaryoni bo'lgani kabi inson ruhiyatiga bo'lgan yondshuv ham ota-onasi va psixologdan huddi shu narsani yani o'zaro hamkorlikni talab etadi.

Uyda va maktabda biror bir kitob yoki mavzu yuzasidan bola bilan suhbatlashish unda inson omili bilan suhbatlashishga bo'lgan ehtiyojni oshirish, munosabatlarni to'g'ri o'rnatish vas hu bilan birga vaziyat holat va axboratlarni tahlil qilishga yordam beradi.O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish (jurnal, kitob, biror mavzu muhokamasi), o'quvchilarni eshitish asnosida ulardagi mavjud xolatni diognos qilish.

Bolani tinglashga harakat qiling, uning so'rash istagini rag'batlantiring savollar. O'zingiznikini tan olishdan qo'rmasdan ularga qiziqish bilan javob bering shubhalar va hatto ba'zi fikrlarni noto'g'ri tushunish.

O'quvchilarda vaziyatlarga nisbatan o'z fikr va bahosini berishni o'rgatish bu narsa ularda to'g'ri kelgan narsaga etgashib ketmaslik, tahliliy fikrlashni kuchaytiradi.

Umuman psixolog, ota-onasi va pedagoglarning bu boradagi yetarlicha bilimga ega bo'lishi va uni to'g'ri qo'llay olishi muhim axamiyatga ega. Biz xoxlaymizmi yoki yo'q axborat asrida o'quvchi yoshlarni gadgetlardan ajratib qo'yishning deyarli iloji yo'q demakki biz ulardan to'g'ri va unumli foydalanishni o'rgatishimiz orqaligina bu vaziyatlarni yumshatish yoki oldini olishimiz mumkin. Maktab yig'ilishlarida psixolog bu borada o'quvchi va o'qituvchilarni bu kabi mavzular bilan doimiy tanishtirib borishi o'quvchilarda bu borada imunitet shakillanishiga o'qituvchilar tomonidan esa bu axboratlarni yana bir marotaba dars jarayonlarida o'quvchilarga yetkazilishiga sabab bo'ladi.

Shu mavzular yuzasidan o'quchilar o'rtasida treninglar o'tqazish (internet isnonga foydalimi yoki zararli, telefonning ijobiyligi va salbiy jihatlari), davra suhbatlari va mavzu yuzasidan muhokamalar.

**Xulosa:** albatta axborat xavfsizli borasidagi qilinishi kerak bo'lgan ishlar shular bilangina cheklanib qolmaydi yoingki bu vazifalaring barcha yuki psixolog zimmasida deb aytishimiz ham noo'rindir. Insnni o'rab turgan muhit unga ta'sir

etmasdan qolmaydi. Demakki o'quvchi yoshlarni o'rtasida axborot xavfsizligini ta'minlashda psixolog ham, pedagog ham va boshqa jamiyatning a'zolari ham bir dek ma'suliyat bilan bu jarayonga diqqatli bo'lishsa o'ylaymanki bu borada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning biroz bo'lsada oldi olingan bo'lardi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOT VA INTERNET RESURSLARI**

1. Z.T.Nishonova, Sh.T.Alimboyeva, M.V.Sulaymonov "Psixologik xizmat" darslik Toshlent-2014.
2. Родионов п.в., павлов а.с., пискун а.а. Защита от воздействия и влияния на подрастающее поколение информационного потока, включая неконтролируемые со стороны системы образования средств массовой информации, видеорынка и интернета // современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 4. ;
3. <https://www.lex.uz/>
4. Durdievna, M. G. (2020, December). NATIONAL EDUCATION IN PHYSICAL CULTURE EDUCATION ISSUES. In Конференции.
5. Eshmurodov, O., & Eshboyeva, B. (2023). O'SMIRLIK DAVRIDA JINSIY STERIOTIPLARNING YOSH XUSUSIYATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8388>
6. Elamanovich, O. E. (2022, October). OILAVIY MUNOSABATLARDAGI NIZOLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. In Archive of Conferences (pp. 1-7).
7. Elomonovich, E. O. (2022). OILA PSIXOLOGIYASINING NAZARIY ASOSLARI, OILAVIY MUNOSABATLAR PSIXOLOGIYASI. Gospodarka i Innowacje., 20, 49-51.
8. Eshmuradov Olmosbek Elamanovich (2021). OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (4), 1318-1323.
9. М. А. Тилакова, & О. Э. Эшмурадов (2021). КРЕАТИВ КОБИЛИЯТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1 (6), 143-149.
10. Eshmurodov, O. (2023). SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHIT OILA BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9088>
11. Eshmurodov, O. (2023). ҚИЗЛАРНИ ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087>
12. Eshmurodov O. E. SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF MAINTAINING FAMILY-MARRIAGE RELATIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 803-807.

13. Эшмурадов О. Э. ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ШАХС МОСЛАШУВЧАНЛИГИ ХУСУСИЯТИНИНГ ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИГА ТАЪСИРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.21.57.012> Эшмурадов Олмосбек Эламонович, Термиз давлат университетининг Педагогика институти Психология кафедраси катта ўқитувчиси //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1-Махсус сон. – С. 377-380.
14. Eshmurodov, Olmosbek. "ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ." *Scienceweb academic papers collection* (2022).
15. Эшмурадов О. Э. Оиланинг маънавий-ахлоқий хусусиятлари ва оила мустаҳкамлигини таъминлаш имкониятлари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1082-1085.
16. Эшмурадов, О. Э. "Оилавий муҳит ва оилавий муносабатлар психологиянинг ўрганиш предмети сифатида." ЎзМУ хабарлари" Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон миллий университети илмий журнали (2019): 162-164
17. Eshmurodov O. ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ //Scienceweb academic papers collection. – 2022.